



FRANS KAFKA IJODINING O‘ZIGA XOSLIGI HAMDA INSON
RUHIYATI TASVIRINING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI
(“EVRILISH” HIKOYASI ASOSIDA)

Abdurahimova Anora Xolbek qizi

Qo‘qon davlat universiteti

Gumanitar fanlar va tillar fakulteti

2-kurs talabasi.

Qurbonova Feruza A‘zamovna

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Frans Kafkaning og‘ir hayot yo‘li hamda ijodiy yo‘nalish uslubi haqida so‘z boradi. Kafkaning shaxsiy hayoti, xususan, otasi bilan munosabatlari ijodini tushinishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Yozuvchining 1915-yilda yozilgan “Evrilish” hikoyasining chuqur ma‘no mazmuni tahlil qilinadi. Maqola adabiy tahlil usullaridan foydalangan holda hikoyaning ramziy tuzilishi, psixologik chuqurligi va falsafiy mazmunini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Franz Kafka, evrilish, metamorfoza, hikoya, psixologik ziddiyat, badiiy psixologizm, ota-og‘il munosabatlari, ramziylik, modernizm.

Jahon adabiyotida eng iste’dodli, eng g‘aroyib va tushunarsiz taqdir egasi deb topilgan Frans Kafka juda qisqa va mashaqqatli hayot kechirgan. Adabiyotshunoslikda Kafka asarlarni tushunish qiyin. Uning asarlarini o‘qishdan, tushunishdan avval, hayoti o‘rganilmasa, asarlarini “hazm qilish” og‘ir kichadi, degan tushuncha mavjud. Sababi, Kafkaning hayoti oson kechmagan va turmush tarzi asarlariga ta’sir qilmay qolmagan. Otasi



tomonidan o'tkazilgan muttasil tazyiq va kamsitishlar keyinchalik, ulg'ayganda uning o'ziga bo'lgan ishonchi past, qo'rqqoq va o'z fikrlarini oshkor eta olmaydigan shaxs sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan. Uning ushbu holatlarga nisbatan bildirilgan ichki tuyg'ulari yoki aytilmagan so'zlarini otasi uchun yozgan, ammo unga yetib bormagan "Otamga xat" essesida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Adib o'zidagi ruhiy va jismoniy og'riqlarga adabiyotdan malham izlaydi, o'zini qiynagan savollarga javob izlaydi. Kafka hayoti sekin-asta ijodiga aylanib bordi, unga xuddi hayotbaxsh suv tomchisidek singib ketdi. Yozuvchi kundaligidagi yozuvlar hayotdagi u yoki bu oddiy voqealar asarlariga ko'chib o'tdi. "Jarayon", "Evrilish", "Labirint" kabi asarlari fikrimizning yaqqol isbotidir.

"Evrilish" hikoyasi Kafkaning adabiy uslubining o'ziga xos xususiyatlarini, xususan, psixologik chuqurlik, ramziy tasvirlar va ekzistensial mavzularni aks ettiradi. Asar nemis tilida "Die Verwandlung", tarjimada esa, "Evrilish", aksariyat manbalarda esa "Metamorfoz" deb ham yuritiladi. Asar 1915-yil Germaniyada nemis tilida yozilgan va bugungi kunda dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan.

"Hozirgi o'zbek romanlari strukturasida psixologizm muammosi" masalalari yuzasidan tadqiqot olib borgan Adabiyotshunos M. Boboxonov shunday fikrlarni bildiradi: "Psixologizm bevosita muallif mulohazasi yoki qahramonlarning o'z-o'zini tahlil qilishi shaklida va yoki bilvosita qahramonlar mimikasi, xatti-harakatini ko'rsatish shaklida amalga oshiriladi. "Yozuvchi personaj xarakterini yaratar ekan, uning ruhiyatini bevosita yoki bilvosita ochib berishi mumkin. Personaj o'y-kechinmalari, his-tuyg'ularining ichki monolog, ong oqimi tarzida yoki muallif tilidan (o'ziniki bo'lmagan avtor gapi) bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli hisoblanadi. Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so'zlari, yuz-ko'z ifodalari (mimikasi), undagi fiziologik o'zgarishlarni ko'rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Ruhiy tasvirning bu ikki ko'rinishi bir-

birini to'ldiradi, shu bois ham muayyan personaj ruhiyatini tasvirlashda yozuvchi bularning har ikkisidan ham o'zni bilan unumli foydalanadi¹.

Asar oddiy kommavayjer ya'ni savdo agenti va vositachi Gregor Zamzaning tasodifan ulkan hasharotga aylanib qolishi bilan boshlanadi. Dastlab, u ishga kech qolishidan xavotir oladi. O'zining hozirgi holati esa u uchun ahamiyatli emas edi. Oila a'zolarining Zamzaga bildirgan munosabati esa avval taajjub va achinish, keyinroq jirkanish va nafratlanish, asar oxirida esa uning o'limidan quvonch va shodlik hislari bilan namoyish bo'ldi. Asar oxirida esa Zamza tashqi olamdan yolg'izlikda vafot etdi. Asarning boshlanish qismiyoq muammoli boshlanadi. To'satdan hasharotga aylanadi va kitobxonda nega, qanday, qachon kabi savollarni tug'diradi. Savollarga jabob topish uchun kitobxon asar mutolaasiga qaytadi. Bu holatga nisbatan oila a'zolarining munosabati va o'z holatini ko'rgach lirik qahramonning jazavaga tushishini kutadi. Lekin asar voqealari keskin o'zgaradi. Zamzani o'z holati emas, ishdan kech qolishi, xo'jayin bilan yuzma-yuz bo'lishi, ishdan haydalihi, oila a'zolarining Zamzaning ishsizligi tufayli och qolishi mumkinligi tashvishga soladi. Lekin bu vaziyatda u uchun kerakli va xavotirli o'y-tashvish nima? Nega u tashqi ko'rinishi haqida oylamayabdi? Agar shu holatda qolib ketsa, uning butun umri qanday kechadi? Avvalgi holatiga qaytishning iloji bormi? Kitobxonni o'ylantirgan bu savollar qahramon uchun butunlay yot mavzular edi. Kafka tasvirlab beryotgan shaxs nafaqat jamiyatdan, balki o'zligidan ham yiroqlashib, begonalashib ketgan. Ya'ni muallif jamiyatda o'z o'rnini yo'qotgan, o'zi uchun nimadir qila olmaydigan insonlarni o'z shaxsiyatidan begonalashgan deb hisoblab, ruhiy holatidagi o'zgarishlarni jismoniy holatida ham ko'rsatib beradi. Zamza bo'lsa, tasodifan jismoniy o'zgarishga uchradi va vaqt o'tgach, ruhan mana shu muhitga moslasha bordi. Harakter tomonlama ham shunday o'zgarishga uchradi: doimiy yeyiladigan ovqatlar o'rniga ovqat qoldiqlari, chirigan meva

¹. Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек романлари структурасида психологизм муаммоси. Фил.фан. док. дисс... – Самарқанд, 2022. – Б.64.

po'choqlari, iste'molga yaroqsiz bo'lgan pishloqlarni yeyishni xush ko'ra boshladi; o'zining sevimli jihozlari esa xonada ortiqchaday tuyildi, yerda yurishdan ko'ra shiftda osilib turishni afzal bildi. Avval uning jismi o'zgarib, hasharotga aylangan bo'lsa, endilikda uning hasharot "men"i ham rivojlana boshladi va butun ongini egallab oldi.

Gregor — oilaparvar inson. U oiladagi yagona asosiy daromad manbai edi. Ota-onasining bekam-u ko'st yashashi, singlisining o'qishi uchun o'zini tamomila unutgan, faqat oila a'zolari uchun yashaydi. Bir so'z bilan aytganda hayotini faqat ishlash, pul topishdan iborat mexanizmga aylantirgan edi. Nega Zamzaning shunchalik jonkuyar bo'lishiga qaramay oilasi u uchun qayg'urmadi? oz bo'lsada, tashvish chekmadi? Axir, Zamza oilasi uchun shu ko'yga tushmadimi? Ularni deb o'zi yoqtirmagan ishda ishlab, och bo'lsa-da, uyqusiz bo'lsa-da nolimasdan mehnat qilmadimi? Hasharotga aylangan Gregor atrofdagi kishilar, kechagina eng yaqin odamlari bo'lgan qarindoshlari bilan til topishga intiladi, biroq ular uning urinishlariga beparvolik bilan qaraydi, uning g'uldurashlarini, imo-ishoralarini tushunishmaydi, oxir-oqibat u o'lganida, ochiqdan-ochiq quvonishadi, xizmatkor ayol uning qurib qotib qolgan tanasini ko'chaga supurib tashlaganida o'zini yengil tortadi.

Ma'lumki, modern adabiyotining muhim xususiyati, muallif asari orqali aytmoqchi bo'lgan fikrini, ilgari surmoqchi bo'lgan g'oyasini ramzlarga yuklaydi.

Hikoya boshdan oyoq ramziy ma'noga ega. Otasining undan nafratlanishi, onasining undan qo'rqishi, singlisining undan jirkanishi, Gregorning faqatgina ishlab pul topib turgan vaqtida kerakli ekanligi muallif tomonidan ramziy ishoralarda ochib berilgan. Undan oila uchun hech qanday naf yo'q. Kafka shu orqali insonni faqat foydasi bo'lganda qadrlaydigan ijtimoiy holatni tanqid qiladi. Bu esa absurdizmning bosh g'oyalaridan biridir. Yozuvchi jamiyatda bu kabi holatlar oz emasligini sezadi va buni ijtimoiy

muammo sifatida ko'tarib chiqadi. Kapitalistik jamiyatda inson faqat ishchi sifatida ko'rilishini fosh etadi.

Xulosa. Kafka asarlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan. Jamiyat va odamlarni o'z-o'zini tanqid qilishga, o'zi haqida qaytadan fikrlashga undaydi. Umumiy qilib aytganda, Kafkaning "Evrilish" asarida begonalashuv va shaxsiy ehtiyojlar bilan jamiyat o'rtasidagi oppozitsiya va konfliktlar yoritiladi. Zamza obrazi oila a'zosi sifatida emas, mana shu oilaning moddiy tomonlama ta'minlovchi vositasi sifatida ko'riladi. Shu bilan bir qatorda, insoniylik, qadr-qimmat chegaralari ham buziladi. Asarning mazmuniy g'oyasi esa faqatgina moddiy foyda keltirishi bilan o'lchanadigan holatlarni keskin tanqid qilish. Frans Kafkaning "Evrilish" hikoyasi insonning ichki kurashi, o'zini o'zi anglashdagi muammolarni o'rganadigan muhim adabiy asardir. Hikoyaning ramziy tuzilishi, psixologik chuqurligi uni zamonaviy adabiyotning muhim namunalaridan biriga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек романлари структурасида психологизм муаммоси. Фил.фан. док. дисс... – Самарқанд, 2022. – Б.64.
2. Usmonov, S. (2003). O'zbek adabiyotidagi modernizm. Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti.
3. Quronov D. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida xarakterlar psixologizmi. Filologiya fanlari nomzodi... dissertatsiya.- T., 1992. – B. 79
4. Садуллаев Ф.Б. Ҳ.Жеймс ижодида инсон руҳияти тасвирининг бадиий-эстетик вазифалари // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2022.
5. F.Kafka. Evrilish. <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/frans-kafka/frants-kafka-evrilish-hikoya/>.
6. Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Frans Kafka . <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/muhammadjon-xolbekov-xx-asr-modern-adabiyoti-manzaralari-07.html>